| **Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari**<br>***Boshlovchi*** barcha vazifalarni o‘ziga oladi – munozara bosqich-larini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to‘g‘riligini tasdiqlash, qo‘llangan atama va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarish.<br>***Taqrizchi*** – tomonlarning ma’ruzalarini yo‘nalishlar bo‘yicha bel-gilash va to‘liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, manti-qiyligi va masalalarning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning aniq ko‘rsati-lishi.<br>***Raqib*** – qabul qilingan tadqiqot o‘rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. **U** faqatgina ma’ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato to-monlarini topish hamda o‘zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.<br>***Ekspert*** – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnash-chilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va taxminlarning samaradorligini baholaydi. |
| **Munozara reglamentini o‘tkazish tartibi**<br>1. Boshlovchi ma’ruza mavzusi va ma’ruzachilarning taqdimotlarini e’lon qiladi.<br>2. Ma’ruza 5 daqiqa davom etadi.<br>3. Taqrizchi – 2 daqiqa.<br>4. Raqib – ma’ruza mavzusi bo‘yicha fikrlarini 1-3 daqiqa taqdim etadi.<br>**5.** Jamoa bo‘lib muhokama qilish– 5-10 daqiqa. |

**18.2-ilova**

**Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari**

| **Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari (ballarda)** | **Munozara ishtirokchilari** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ma’ruzachilar (F.I.Sh.) | | | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 |
| Ma’ruzaning mazmuni (2,5): | | | | |
| - mavzuga mos kelishi (1,5); | | | | |
| -mantiqiylik, aniqlik (0,5); | | | | |
| - xulosalarni qisqaligi (0,5); | | | | |
| Infromatsion texnologiyalardan foydalanganligi (ko‘rgazmalilik) – (0,9). | | | | |
| Reglament (0,6) | | | | |
| Jami (4,0) | | | | |
| | Taqrizchilar (F.I.Sh.) | | | |
| Ma’ruzaning tavsifi (3,0) | | | | |
| -ma’ruzaning kuchli tomonlarini aniqlash (1,2) | | | | |
| -ma’ruzaning zaif tomonlarini aniqlash (1,2) | | | | |
| Reglament (0,6) | | | | |
| Jami (3,0) | | | | |
| | Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.Sh.) | | | |
| Savollar | | | | |
| -har biri uchun (0,3) | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

**18.3-ilova**

**Ekspert varag'i №1**

1. To'lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari. Iqtisodiy hudud.
2. Kredit. Debet. Operatsiyalar bahosi.
3. Rezident.

**Ekspert varag'i №2**

1. Tovarlar eksporti va importi.
2. Omildan olingan daromadlar
3. Sof joriy transfertlar

**Ekspert varag'i №3**

1. To'lov balansi tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlik.
2. To'lov balansi tahlili.
3. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish.

**18.4-ilova**

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mamlakat to'lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?

2. To'lov balansini tuzishda ikki bor yozuv printsipi nimani anglatadi?

3. Joriy operatsiyalar balansida aks ettiriladigan operatsiyalarni sanab bering.

4. Kapital harakati balansining mohiyatini tushuntirib bering.

5. To'lov balansi tarkibiy qislari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.

6.To'lov balansi taqchilligi va inqirozi bir xil tushunchalarmi?

7. Erkin tebranuvchi valyuta kursi tizimida to'lov balansi qay yo'sinda barqarorlashadi?

8. To'lov balansini makroiqtisodiy tarptibga solish deganda nimani tushunasiz? Bunda qanday vositalardan foydalaniladi?

9. To'lov balansi tahlili makroiqtisodiy jarayonlar to'g'risida qanday ma'lumotlar olish imkonini beradi?

**Tavsiya etilgan adabiyotlar**


**1.** Prezident Islom Karimovning 2015 yil 16 yanvardagi Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi /Халқ сўзи газетаси, 17 январ/

2. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir"– Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.

3. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston, 2009 yil. -56 b.

4. Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumaev Q.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004 - 240 b.

5. Vahobov A.V., Abdullaev Yo.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari asarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T: "IQTISOD - MOLIYA", 2009

6. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник. 7-е изд. - М.: «Дело и Сервис», 2005. - 464 с.


## 19-mavzu. VALYUTA KURSI
## (2 soat)

19.1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi.
19.2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.
19.3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar.
19.4. Xarid qobilyati pariteti.
19.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri.

**Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:** «Kaskad texnikasi» yordamida, muammoli savollar

**19.1-ilova**

**«Kaskad» texnikasi**

| |
|---|
| Ushbu texnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi:<br>Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish. |

***1-topshiriq***

Savol yuzasidan fikrlaringizni bildiring va ularni asoslang.




***2-topshiriq***

Savol yuzasidan fikrlaringizni bildiring va ularni asoslang.




***3-topshiriq***

Savol yuzasidan fikrlaringizni bildiring va ularni asoslang.



**19.2-ilova**

## Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va taqdimotni tayyorlash – 20 daqiqa
2. Ishning natijalarini taqdimot etish – 5 daqiqa
3. Jamoa bo‘lib muhokama qilish va guruhni baholash – 5 daqiqa

**19.3-ilova**

## Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a’zosi:
- o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda, so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

**19.4-ilova**

## Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari (ball)

| Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari (ballarda) | Guruhlar | | |
|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 |
| 1-topshiriq (0,3) | | | |
| 2-topshiriq: | | | |
| - mavzuga mos kelishi, ko‘rgazmalilik (0,8); | | | |
| - mantiqiylik, aniqlik (0,5); | | | |
| 3-topshiriq (0,5) | | | |
| 4-topshiriq: | | | |
| - xulosalarni aniq shakllantirilganligi (0,5); | | | |
| Reglament (0,2) | | | |
| Nazorat savollariga to‘g‘ri javob uchun (0,1) | | | |
| Boshqalar tomonidan to‘ldirilganligi uchun (0,1) | | | |
| Jami (3,0) | | | |

**19.5-ilova**

# Muammoli savollar

1. Xarid qobilyati pariteti atamasining mohiyati nimadan iborat?
2. Real valyuta kursi makroiqtisodiy siyosat ta'sirida qay tarzda o'zgartiriladi va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
3. Protektsionizm siyosatining valyuta kursiga ta'sirini qanday baholaysiz?
4. Valyuta kursi o'zgarishining yalpi talab va yalpi taklif hajmiga ta'siri mexanizmini tushuntirib bering.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Prezident Islom Karimovning 2015 yil 16 yanvardagi Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi /Халқ сўзи газетаси, 17 январ/
2. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir"– Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.
3. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston, 2009 yil. -56 b.
4. Dornbush R. "Macroeconomics" - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.,- 574 p.
5. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов , 3-е изд., дополненное.-СПб.: Питер, 2009.- 350 с.
6. Менкю Н.Г. Принципи макроекономики: 4-е изд./ Пер.с анг. – СПб.: Питер, 2009. - 544 с.
7. Самуэльсон, Пол Е., Нордхаус, Вилям Д. Макроэкономика,18-е изд.: пер. с англ,-М.: ООО «И.Д. Вилямс», 2009.-592 с.
8. Макроэкономика. Теория и российская практика: учебник / под ред. А.Г.Грязневой и Н.Н. Думной.-5-е изд., перераб. И доп.-М.: КНОРУС, 2008.- 688 с.
9. Насритдинова С.С. "Макроэкономика" Т.: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ".2008
10. Тарасевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика:Учебник.- 6-е изд., испр. и доп. –М.: Висшее образование», 2006, 89--127 с.с.


## 20- mavzu. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT (2 soat)

20.1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari.
20.2. Mandell Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli.
20.3. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.
20.4.Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat.

**Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar: “**Insert usuli”, “BBB” jadvalini to‘ldirish.

**20.1-ilova**

**Guruhlar uchun topshiriqlar**

**1-guruh**

Ochiq iqtisodiyot, Ichki xarajatlar , savdo balansi, sof eksport, Ichki xarajatlar, sof eksport, devalvatsiya tushunchalarining mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini yoriting.

“Ochiq iqtisodiyot” tushunchasiga klaster tuzing.

**2- guruh**

Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta’sirini tushuntirib bering? “Eksport va import” tushunchasiga klaster tuzing.

**3- guruh**

Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko’rsatkichlarini sanab bering va yoriting.

“ sof eksport” tushunchasiga klaster tuzing.

**4- guruh**

**Mandell-Fleming modeli** qanday model va u nima maqsadida qo’llaniladi.

“Devalvatsiya” tushunchasiga klaster tuzing

**20.2-ilova**

***“Insert usuli”***

**Insert** – samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishga yordam beradi. Bunda ma’ruza mav-zulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(v) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

**Insert jadvali**

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | **?** |
|---|---|---|---|---|
| Ochiq iqtisodiyot | | | | |
| Yopiq iqtisodiyot | | | | |
| Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko’rsatkichlari | | | | |
| Ichki muvozanat | | | | |
| Tashqi muvozanat | | | | |
| Qayd qilingan valyuta kursi | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Suzib yuruvchi valyuta kursi | | | | |
| Devolvatsiya | | | | |

**20.3-ilova**

| **Guruh bilan ishlash qoidalari** |
|---|
| **Guruh a’zolarining har biri:**<br>- o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;<br>- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;<br>- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;<br>- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;<br>- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;<br>- “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutulamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim. |

*1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring,* eksport, import, ishlab chiqarish, tovarlar, xizmatlar, mamlakat tushunchalari qanday bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi?

*2.* “Mandell-Fleming modelining qo‘llanilishi” *bo‘yicha sxema tuzing.*

*3. Ushbu tushunchalarning mazmunini yoriting.*

| |
|---|
| Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?<br>Kichik va katta ochiq iqtisodiyotning mohiyati va farqlarini tushuntirib bering.<br>Tashqi muvozanat atamasini izohlab bering.<br>Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelini tavsiflab bering. |

**20.4-ilova**

**Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)**

| **Guruh** | **1 topshiriq** | **2 topshiriq** | **3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)** | | | **Ballar yig‘indisi** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | (1,0) | (1,4) | 1-savol | 2-savol | 3-savol | (3,0) |
| **1** | | | | | | |
| **2** | | | | | | |
| **3** | | | | | | |

**20.5-ilova**

**B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar**

| | **Tushuncha** | **Bilaman “+”, Bilmayman “-”.** | **Bildim “+”, Bila olmadim “-”.** |
|---|---|---|---|
| **1** | Ochiq iqtisodiyot | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2** | Yopiq iqtisodiyot | | |
| **3** | Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko’rsatkichlari | | |
| **4** | Ichki muvozanat | | |
| **5** | Tashqi muvozanat | | |
| **6** | Qayd qilingan valyuta kursi | | |
| **7** | Suzib yuruvchi valyuta kursi | | |
| **8** | Devolvatsiya | | |

### Tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Prezident Islom Karimovning 2015 yil 16 yanvardagi Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi /Халқ сўзи газетаси, 17 январ/
2. I.A.Karimov. “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir” – Toshkent: «O’zbekiston», 2010. – 34-50 b.
3. I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari”. T.: O’zbekiston, 2009 yil. -56 b.
4. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика.2-е изд.-СПб.:Питер, 2010, 53-68 с.с.
5. Мариганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Експресс курс.: учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010, 66-71,181-189 с.с.
6. Менкю Н.Г. Принципи макроэкономики: 4-е изд./Пер.с анг.–СПб.:Питер, 2009, 282-288 с.с.
7. Самуэльсон, Пол Е., Нордхаус, Вилям Д. Макроэкономика,18-е изд.: пер. с англ,-М.: ООО «И.Д. Вилямс», 2009, 183-226 с.с.
8. Абел Е., Бернанке Б. Макроэкономика. 5-е изд.- СПб.: Питер, 2008, 323-339 с.с.
9. Киселева Е.А. Макроэкономика: Экспресс курс: учебное пособие.- М.: КНОРУС, 2008, 144-175 с.с.
10. Тарасевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика: Учебник.- 6-е изд., испр. и доп. –М.: Высшее образование», 2006, 89--127 с.с.


## 3. MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Fan bo‘yicha talabalarga mustaqil ish uchun 54 soat ajratilgan. Mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida o‘zlashtirish; amaliy mashg‘ulotlar uchun topshirilgan, mavzuga doir masalalar, keys-stadi va o‘quv loyihalarini

Axborot resurs markazi manbalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlarini to‘plagan holda bajarish; ilmiy-amaliy anjumanlarga ma’ruza tezislari va ilmiy maqolalarni tayyorlash.

Talabalarning mazkur fan bo‘yicha mustaqil ishini tashkil etish va uni nazorati Toshkent Moliya instituti rektori tomonidan tasdiqlangan “Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat va baholash to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq fan bo‘yicha mustaqil ishni tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatmalar asosida olib boriladi.

**“Makroiqtisodiyot” fanidan mustaqil ta’lim sifatida o‘rganiladigan quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Makroiqtisodiy modellar va makroiqtisodiy tahlilda ulardan foydalanish xususiyatlari.
2. O’zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish tarkibi tahlili.
3. O’zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili.
4. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
5. Inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish omillari.
6. Inflyatsiya va aksilinflyatsiya siyosati.
7. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari tahlili.
8. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tahlili.
9. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tahlili.
10. Davlat byudjeti taqchilligi: mohiyati yuzaga kelish sabablari va bartaraf etish yo’llari.
11. O’zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish ko’rsatkichlari.
12. O’zbekiston Respublikasining 2014 yilda pul-kredit siyosati tahlili.
13. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirini bartaraf etishda pul-kredit siyosati va bank tizimining roli.
14. Iqtisodiy o’sish omillari va tiplari.
15. Iqtisodiy o’sishning zamonaviy neoklassik modellari.
16. Xalqaro savdo va daromadlarning taqsimlanishi.
17. O’zbekiston Respublikasining tashqi savdosi dinamikasi va tarkibi.
18. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari.
19. To’lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish usullari va muammolari.
20. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli real valyuta kursi dinamikasiga ta’siri.
21. O’zbekiston Respublikasi milliy valyutasi kursining o’zgarishi tendentsiyalari va omillari.
22. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish bo’yicha rivojlangan davlatlar tajribasi.

# 4. USLUBIY KO‘RSATMALAR

## Mikroguruhlar bahs-munozaralari yuzasidan tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarni talabalarning yuksak faolligi sharoitida o‘tkazish “Makroiqtisodiyot” fanini o‘qitishning asosiy talablaridan biridir. Bunga erishish usullaridan biri mikroguruhlar bahs-munozaralarini uyushtirib borishdir. Mazkur usulni amalda ishlatish ko‘p bosqichli bo‘ladi:

**Birinchi bosqich.** Amaliy guruhidagi talabalar 2-3 ta kichik guruhlarga ajaratiladi. Guruhning boshlovchilari – yetakchi tayinlanadi, ular almashtirib turiladi, natijada har bir talaba o‘qish davrida yetakchi vazifasini o‘taydi. O‘qituvchi yetakchi funksiyalarini aniq belgilab beradi. Yetakchining o‘zi puxta tayyorlanishi, boshqalardan shu jihatdan yuqori turishi, guruq fikrini qayrab turishi, xullas muayyan yo‘lboshchi bo‘lishi talab qilinadi.

**Ikkinchi bosqich.** Bahs-munozara uchun predmet tanlab olinadi, ya’ni qaysi bir masala yuzasidan tortishuv bo‘lishini o‘qituvchi oldindan belgilab, bu haqda guruhlarni ogoh etadi. Guruhlar munozara predmeti yuzasidan oldindan tayyorgarlik ko‘radi. O‘qituvchi bir necha mashg‘ulot uchun bahs obyektini oldindan belgilab beradi.

**Uchinchi bosqich.** Bahs-munozara mashg‘ulot paytida tashkil etiladi. Bunda qo‘yilgan masala yuzasidan har bir mikroguruh vakili o‘z fikrini bildiradi. Guruhlar bir-birigi savol beradi, e’tirozini bildiradi. Shu o‘rinda dalillarda va qarshi dalillar qo‘llanadi. Bahsga o‘qituvchi aralashib, qo‘yilgan savollarga aniqlik kiritadi, muhokama yuzaga keltirgan yangi savollarga javob beradi. Bahs haqiqiy- ilmiy munozaraga aylanishi talab qilinadi.

**To‘rtinchi bosqichda:** O‘qituvchi bahs-munozaraga yakun yasab qaysi mikroguruq ustun kelganligi, qaysi talaba bahsda kuchli dalil keltirganligini qayd etadi. Bahs yakuniga qarab, o‘qituvchi ishtirokchilarga ball qo‘yadi. Bunda munozarada yetakchilik qilgan talabaga, u o‘z ishini uddasidan chiqqan sharoitda, eng yuqori ball qo‘yiladi. Munozaraning faol ishtirokchilari ham ball bilan siylanadi.

Bahs-munozara o‘tkazilganligi va qo‘yilgan ballar Amaliyot daftarida alohida qayd etiladi. Bu bilan tinglovchilar bilimiga adolat bilan yakuniy baho chiqarishga erishiladi.

**Kichik guruhlarda ishlash.** Bunda tinglovchilar 3-5 kishilik guruh hosil etadilar. Har guruh mustaqil topshiriq olib, uni birgalikda bajaradi va ishlash natijalarini katta guruh oldida bayon qiladi, har xil natija olinganda, bu asoslab beriladi, boshqa guruhlar bilan bahs qilinadi. Kichik guruhda tinglovchilar bir-biridan o‘rganadi. Kichik guruhda ishlash uchun nazariy muammo, misol va masala yechish, topishmoqqa javob topish, qo‘yilgan aniq muammoni yechish, grafiklar tuzish, jadvallarni to‘ldirish kabilar bo‘lishi mumkin.

## Vaziyatli videolavhalar tahlili

Telelavhalar iqtisodiy faoliyatga bag‘ishlangan sahnalar va kino kadrlardan iborat bo‘lib, badiiy-ilmiy materiallarni qamrab oladi. Ularda badiiy obraz orqali iqtisodiy jumboqlar qo‘yilgan, iqtisodiy yechimlar va amaliy xatti-harakatlar tasvirlangan. Badiiy lavhalar mavzularga qarab ekranda namoyish etiladi, har lavha so‘ngida savollar qo‘yilgan, ularga javobni talabalar topishlari kerak.

Bunda o‘qituvchi lavhalarda qanday muammo qo‘yilganligiga urg‘u beradi, shu bilan birga, qabul qilingan qarorlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqidagi masala o‘rtaga tashlanadi, agar xato bo‘lsa, u nimadan iborat degan savolga e’tibor beriladi. Tinglovchilar o‘z fikr-mulohazasini bildirib, bahslashadi, ular kichik guruhlarga bo‘linib, boshqa guruh bergan javobni sharxlaydi, to‘g‘ri va noto‘g‘ri ekanligini asoslaydi. O‘qituvchi bahslar yuzasidan ajrim qiladi. Telelavhalar ketma-ket mavzusiga qarab bahs usulida tahlil etiladi. Lavhalar tahlilining kengligi va chuqurligiga qarab, unda ishtirok etgan talabalarga ball beriladi va u jurnalda qayd etiladi.

## Savol-javob va suhbat

Amaliy mashg‘ulot o‘tkazishning eng tarqalgan shakli. Bunda Amaliyot rejasida ko‘riladigan masalalar yuzasidan o‘qituvchi qo‘ygan savollarga talabalar javob berishadi. Yirik savollar bilan birgalikda mayda savollar ham o‘rtaga tashlanadi, ularga ixtiyoriy ravishda javob beriladi, javoblarga tanqidiy e’tirozlar ham tinglanadi, savollar yana boshqa javoblar bilan to‘ldirib boriladi. Darsda talabalar o‘qituvchi oldiga ham savol qo‘yadilar. Savollar yechilmay qolgan taqdirda ular yuzasidan o‘qituvchi suhbat o‘tkazadi. Savol-javoblar natijasiga qarab, talabalarga ball qo‘yiladi.

## Yozma ish va uni taqrizlash

Bu usul talabalarni darsga qanday tayyorlanib kelganligini bilish, qo‘yilgan masala yuzasidan qanday bilim olganliklarini umumiy tarzda aniqlash uchun o‘tkaziladi. Bunda talabalarga aniq va qisqa savol beriladi, unga talabalar yozma ravishda lo‘nda qilib javob berishadi. Yozilgan javoblarga magistrlar taqriz beradi. Bunda javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi, qaysi javob eng zaif yoki eng to‘la ekanligi asoslanadi. Har bir taqriz beruvchi o‘z dalilini keltiradi, o‘z fikrini og‘zaki ravishda asoslaydi. Shu yo‘sinda bahs boshlanadi. Yozma javobning mazmun-dorligi, taqrizlar va bahslashuv natijasiga qarab, o‘qituvchi tinglovchilarga ball qo‘yadi.

## Amaliy va rol o‘yinlari

Amaliy mashg‘ulotining eng qiziqarli, lekin o‘ta ma’sul shakli. Bunday dars oldindan yozilgan ssenariylar asosida o‘tkaziladi. O‘yinlar mavzusi oldindan belgilanadi, unga jiddiy tayyorgarlik ko‘riladi, rollar ham oldindan tasdiqlanadi, ularni o‘qituvchi har bir talabaga yoki kichik guruhga birikitib qo‘yadi. O‘yinlar natijasida talabalar amaliy ishni naqadar yaxshi bajara olishlari aniqlanadi. O‘yinlar odatda, dolzarb muammolar yuzasidan o‘tkaziladi.

Avvalo amaliy o‘yin predmeti sifatida iqtisodiy muammo imitatsiya qilinadi. Muammoning yechimi yuzasidan har bir o‘yin ishtirokchisi o‘z rolini ijro etadi. Rol ijrochisi muammoni yechish yuzasidan o‘z qarorini e’lon qiladi, nima qilishini bildiradi. Bularga qarama-qarshi ravishda boshqa rol ijrochilari muammoga boshqacha qarashini bildiradi. Har bir rol ijrochisi o‘z gapini ma’qullaydi. O‘yin o‘tkazilganda ijrochilar 2 guruhga ajratiladi. Ulardan biri o‘z fikrini tasdiqlasa, boshqasi e’tiroz bildirib, bunga rozi bo‘lmaydi. Qarshi turgan ijrochilar muammoning muqobil yechimini beradi. Rol ijrochilarining bilim mahorati, ya’ni masala yechimiga asosli yondashuviga qarab, ularga ball beriladi.

## Ko‘nikma olish mashqlari

Bunday usul amaliy ko‘nikmalar olish yuzasidan bajariladi. Buning uchun ko‘nikma obyekti olinadi, ya’ni nima qilish aniqlab beriladi. Berilgan topshiriq bosqichma-bosqich bajarib boriladi va buni o‘qituvchi nazorat qiladi.

Bajariladigan amallar kerak bo‘lsa, bir necha bor takrorlanadi. Tinglovchi amallarni so‘zsiz bajara olishiga erishgach, uning ishi baholanadi. Ko‘nikma odatda, amaliy hisob-kitob o‘tkazish, masala yechish, grafik va jadvallar tuzish yuzasidan hosil qilinadi.

## «Davra suhbati»

«Davra suhbati» amaliyot darsining faol shakli hisoblanadi.

Talabalar tavsiya etilgan adabiyotlar ustida ishlashlari va erkin muhokamada, o‘rtoqchilik bahslashishda rejada ko‘rsatilgan savollarni muhokama qilib, o‘z fikr-mulohazalarini bayon etishlari lozim.

Qo‘yilgan savollar-muammolarni muhokamasini bank, moliya va soliq organlarining faoliyati bilan bog‘lab, ko‘rilishi talab qilinadi.

“Davra suhbati”ni erkin vaziyatda o‘tkazish, talabalarni o‘zaro bemalol fikr almashishini tashkil qilish, ularning faolligini oshirish maqsadida darsni o‘qituvchi emas, talabalar guruhi tomonidan demokratik ravishda saylangan, tasdiqlangan yetakchi olib boradi.

“Davra suhbati”ga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi, kerak bo‘lsa, o‘qituvchilar o‘tkazadi.

O‘qituvchi guruh yetakchisi dars olib borish uchun ham mazmunan, ham uslubiy nuqtai nazardan tayyorlaydi.

“Davra suhbati”ni yetakchi qisqacha kirish so‘zi bilan boshlaydi. Talabalar rejada ko‘rsatilgan savollarni navbat bilan ko‘rib chiqadilar. So‘zga chiqqan talaba guruh a’zolaridan tushgan savollarga javob beradi.

Har bir muhokamaga qo‘yilgan savol bo‘yicha asosiy so‘zga chiqqan talabadan tashqari boshqalar qo‘shimcha yoki tanqidiy chiqishlar qilishlari mumkin.

Guruh yetakchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo‘yicha oxirida qisqa xulosalar chiqaradi.

Darsning yuqori samarali bo‘lishi uchun imkoniyat boricha muhokamada ko‘proq talabalar ishtirok etishlari lozim.

“Davra suhbati”ning oxirida yakuniy so‘z bilan o‘qituvchi chiqadi. O‘qituvchi talabalarni so‘zga chiqishlarini xulosalaydi va noto‘g‘ri chiqishlar bo‘lgan bo‘lsa, ularni to‘g‘rilab o‘tadi, masalaning mohiyatini oxirigacha ochib beradi, yoritilmay qolgan savollarni yoritadi.

Dars oxirida davra suhbati ishtirokchilariga ball qo‘yiladi.

Yuqorida keltirilgan uslublarni qo‘llash bo‘yicha amaliyot rejasida har savol oxirida ko‘rsatmalar beriladi, ya’ni qaysi masalani qanday usulda muhokama qilish ma’qulligi ko‘rsatiladi.

## Referat yozish yuzasidan tavsiyalar

Referat mustaqil ishning muhim bo‘g‘inidir, uning mazmuni va o‘z vaqtida yozib topshirilishiga qarab talabalar bilimi ball bilan baholanadi. Odatda, har bir referat uchun, agar u yaxshi yozilgan bo‘lsa 5, eng ko‘pi 10 ball beriladi. Ballni ko‘proq olish uchun 2-3 ta referat yozish mumkin emas. Referatlar umumnazariy yoki yirik iqtisodchilarning taniqli asarlari yuzasidan yoziladi. Referatlar mavzularidan qaysi birini tanlab olish talaba ixtiyorida bo‘ladi.

Talaba referat mavzusini bo‘lg‘usi dissertatsiyasi yoki o‘zi qiziqqan masalaga yaqin qilib tanlab olgani ma’qul. Ammo tanlangan mavzular bir-birini takrorlamasligi zarur, lekin ayrim asarlardan yoziladigan referatlar bundan mustasnodir.

Umumnazariy mavzudagi referatlar ro‘yxati o‘zgartirib va to‘ldirilib boriladi, shu bois rasmiy ro‘yxatda bo‘lmagan mavzuda ham referat tayyorlash mumkin, ammo yangi mavzu o‘qituvchi tavsiyasiga binoan yoki uning roziligi bilan tanlab olinadi. Mavzu aniq bo‘lgach, talaba mustaqil ravishda unga oid adabiyotlarni o‘rganib chiqadi.

Umumnazariy tusdagi referatlar yozilganda faqat yirik kitob va risolalar emas, balki jurnal maqolalari, turli tashkilotlar tayyorlagan to‘plamlar, statistika ma’lumotlari ham o‘rganiladi. Mavzu bilan tanishilgach, referatning rejasi tuziladi va o‘qituvchi bilan kelishiladi.

Rejaga binoan qo‘lda yozilgan referat belgilangan vaqtda o‘qituvchiga topshiriladi. Referat kech topshirilsa, unga beriladigan ball kamaytiriladi. Yuqori ball olish uchun referatni sermazmun qilib va o‘z vaqtida tayyorlash kerak. Topshirilgan referat vaqti ko‘rsatilgan holda kafedra jurnalida qayd etiladi. Referatni Amaliyot mashg‘uloti o‘tkazuvchi o‘qituvchi tekshirib chiqadi, uning mazmuni, vaqtida topshirilishi va qanday shaklda rasmiylashtirilishiga qarab, ball qo‘yib chiqadi va uni referatning bosh betiga yozib, o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Referatning asosiy mazmuni Amaliyot mashg‘uloti chog‘ida uning muallifi tomonidan bayon etilishiga yo‘l beriladi. Eng yaxshi referatlar konferensiyalarga tavsiya etiladi.

## Mustaqil ish

Talabalar dasturda belgilangan hajmda bilim olishlari talab qilinadi, ammo dars soatlari chegaralangani uchun ular hamma kerakli mavzularni darsda o‘zlashtirib ulgurmaydilar. Dars jarayonida olib ulgurulmagan bilimlarni

mustaqil ishlash orqali o‘zlashtiriladi. Talabalar fan dasturida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha ball to‘plashlari zarur, buning uchun esa mustaqil ish topshiriqlarini bajarishlari topshiriq tariqasida, albatta yakuniy testlarga kiritiladi. Mustaqil ish 2 qismli bo‘ladi: 1) mustaqil ravishda referat yozish; 2) mustaqil ravishda dasturda tavsiya etilgan masalalarni o‘rganib chiqish. Mustaqil ishlash jarayonida talabalar belgilangan topshiriqlarni, adabiyotlarni qunt bilan o‘rganish asosida bajarib, bilimlarini to‘ldiradilar. Mustaqil ishni bajarilishiga qarab (referatlarni inobatga olgan holda) talabalarga ball qo‘yiladi.

## 5. Amaliy mashg‘uloti davomida aqliy munozara shaklida o‘tkaziladigan ishchi o‘yinning qoidalari

Aqliy munozara shaklida o‘tkaziladigan ishchi o‘yinning barcha qatnashchilari 3 (2) ishchi guruhga va 1ta ekspertlar guruhiga bo‘linadi.

Har bir guruh o‘qituvchi tomonidan topshiriq oladi.

Har bir guruhga yordam tariqasida tegishli yo‘nalishlarni amalga oshirishni tezlashtirish yuzasidan taxminiy tadbirlar rejasi beriladi.

Har bir guruhning asosiy vazifasi yuqoridagi 10 ta savoldan iborat tadbirlarni ishlab chiqishdan va uni barcha Amaliyot qatnashchilari oldida taqdimot tarzida himoya qilishga tayyorlashdan iborat.

Taqdimotni tayyorlashga 5 daqiqa va uni himoyasiga ham 5 daqiqa ajratiladi.

Ishlab chiqilgan tadbirlarning taqdimoti ma’ruzaning asosiy qismidan keyin o‘tkaziladi va boshqa guruh a’zolari tomonidan to‘ldiriladi.

Ishchi guruhlar taqdimot o‘tkazganidan keyin bosh ma’ruzachi aqliy munozara natijalarini umumlashtiradi, ekspert guruhi a’zolari esa, har bir taqdimotni baholagan holda, g‘olibni aniqlaydilar.

Ishchi guruhlar tomonidan tayyorlangan taqdimotni baholashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Taqdimotdan olingan umumiy taassurot.
2. Tanlangan tadbirlar rejasining istiqbolligi;
3. Muammoni yechimiga kompleks yondashuv;
4. Tanlangan savollarning dolzarbligi;
5. Muammoning yechimiga ishtirokchilar yondashuvining yangiligi;
6. Belgilangan chora-tadbirlarning o‘zaro bog‘liqligi;
7. Belgilangan chora-tadbirlarning aniq bayon qilinganligi;
8. Savol qo‘yilishining kengligi;
9. Taqdimot jarayonining jonliligi;
10. Tadbirlarni ishlab chiqishda jamoaviylik.

Har bir mezon 0,5 balldan baholanadi.

Guruhlar taqdimoti eng yuqori balli – 5 ballni tashkil etadi.

## Informatsion – texnik vositalar

“Makroiqtisodiyot” fani bo‘yicha talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini va sifatini oshirish uchun yangi interfaol, pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Ma’ruzalar Microsoft Office Power Point dasturida tayyorlangan slayd prezentatsiyalari orqali o‘qitiladi. Ularga qisqacha tarqatma materiallar tarqatiladi. Yuqorida nomlari keltirilgan texnologiyalar talabalarning o‘zlashtirish darajasining bevosita yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Ushbu fanni talabalar yaxshi o‘zlashtirishlari uchun iqtisodiy nazariya kursini, iqtisodga oid qonunlarni, raqobat qonunlarini, korxonalarning faoliyat ko‘rsatish mexanizmini, mehnat jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni, firmalar qaror qabul qilishda yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini mustaqil o‘rganishlari va ulardan boxabar bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

Fan bo‘yicha va unga yaqin mavzular yuzasidan INTERNET tarmog‘idan foydalanishlari talabalarning bilimlarini har tomonlama oshishiga olib keladi.

Kurs bo‘yicha ma’ruzalar matni, Microsoft Office Power Point dasturida tayyorlangan slayd prezentatsiyalarining bosma va elektron variantlari mavjud. Bundan tashqari, kutubxonada kurs bo‘yicha tavsiya qilingan adabiyotlar mavjud.

**Internet saytlari:**
**http://www. iet. ru**
**http://www.nes.ru**
**http://www.ic.omskreg.ru**
**http://www. imce.ru**
**http://www.cer.uz**
**www.review.uz**

## AMALIY MASHG’ULOTLARGA TAYYORLANISHDA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR


1. Prezident Islom Karimovning 2015 yil 16 yanvardagi Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi /Халқ сўзи газетаси, 17 январ/
2. Karimov I.A. «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi» // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlan-gan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.-www.press-service.uz
3. Prezident Islom Karimovning 2010 yil 27 yanvardagi O‘zbe-kiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqa-rolik

jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”, deb nomlangan ma’ruzasi. http://www. //press-service.uz/.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Mam-lakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraq-qiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ru-zalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: “Iqtiso-diyot” nashriyoti. –2010. – 310 bet
5. Dornbush R. “Macroeconomics” - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.,- 574 p.
6. Abel E., Bernanke B. Makroekonomika. 5-e izd.- SPb.: Piter, 2008.– 768s.
7. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. Uchebnik. 7-e izd. - M.: «Delo i Servis», 2005. - 464 s.
8. Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumaev Q.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. - T.: «O’zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg’armasi nashriyoti», 2004 - 240 b.
9. Vahobov A.V., Abdullaev Yo.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari asarini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma. T: “IQTISOD - MOLIYA”, 2009
10. Dornbush R. “Macroeconomics” - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.,- 574 p.
11. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроекономика; Учебник для вузов , 3-е изд., дополненное.-СПб.: Питер, 2009.- 350 с.
12. Менкю Н.Г. Принципи макроекономики: 4-е изд./ Пер.с анг. – СПб.: Питер, 2009. - 544 с.
13. Самуэльсон, Пол Е., Нордхаус, Вилям Д. Макроекономика,18-е изд.: пер. с англ,-М.: ООО «И.Д. Вилямс», 2009.-592 с.
14. Макроэкономика. Теория и российская практика: учебник / под ред. А.Г.Грязневой и Н.Н. Думной.-5-е изд., перераб. И доп.-М.: КНОРУС, 2008.- 688 с.
15. Насритдинова С.С. “Макроэкономика” Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”.2008
16. Тарсевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроекономика:Учебник.- 6-е изд., испр. и доп. – М.: Висшее образование», 2006, 654 с.
17. Ивашковский С.Н. Макроэкономика: Учебник. - 2-е издание. М.: Дело, 2002.,- 472 с.

## Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q.X. “Makroiqtisodiyot” (O'quv qo'l-lanma).-T.:O'zbekiston Yozubchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.-192 b.
2. Abulkasimov X. “Makroiqtisodiy tartibga solish va O’zbekistonning barqaror rivojlanishi”. Monografiya. – T. “Akademiya”, 2011
3. Djumayev Z.A. “Makroiqtisodiyot” fanidan O’quv-uslubiy majmua.,Toshkent: Iqtisodiyot.-2010 y.-598 b.

4. Агапова Т.А., Серегина С.Ф., Макроэкономика -М.: Дело и сервис 2007
3. Мариганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс.: учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010.-302 с.
4. Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие- М.:КНОРУС, 2008- 384 с.
5. Кушлин В.И., Ивлева Г.Ю., Клюкин П.И. Макроэкономика: Государственное регулировании в условиях глобализации; УМК дляподготовки магистров.-М. :Изд-во РАГС, 2007.-320 с.
6. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Тести: Учебное пособие.-2-е изд.- М.: Издателство “Дело и сервис”, 2005., 96 с.
7. Матвеева Т.Ю. Введение в макроэкономику: учебное пособие. Гос.ун-т-Висшая школа экономики.-3-е изд.-М: Изд.дом ГУ ВШЕ, 2005.-510 с.
8. Ишмухамедов А.Е., Чепел С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам “Макроэкономика” и “Микроэкономика”( учебное пособие)-Т.: ТГЕУ, 2005, 140 стр.

**9. Internet saytlari:**

www.lex.uz - Uzbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
www.mineconomi.uz
www.mf.uz - O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi veb portali.
www.stat.uz - O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi veb sayti.
www. soliq.uz - O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasi veb sayti.
www.wordbank.org. -Jahon Banki ma’lumotlari.
www.imf.org «Xalqaro valyuta fondi» ma’lumotlari.
bankreferatov.ru – dissertatsiyalar, diplomlar, kurs ishlari va jamlangan sayt.

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **Kirish**............................................................................................... | | 3 |
| **1.** | Fanga ajratilgan o‘quv soatlarining o‘quv turlari bo‘yicha taqsimoti ........................................................................ | 4 |
| **2.** | Amaliy (seminar) mashg‘ulotlarning namunaviy mavzulari........ | 5 |
| | **1- MODUL** | |
| **1-mavzu.** | “Makroiqtisodiyot” faniga kirish .......................................... | 5 |
| **2-mavzu.** | Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar va ularni hisoblash..... | 8 |
| **3-mavzu.** | Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik.............. | 12 |
| **4-mavzu.** | Inflyatsiya va aksilinflyatsiya siyosati .................................. | 14 |
| **5-mavzu.** | Yalpi talab - yalpi taklif modeli............................................. | 16 |
| **6-mavzu.** | Iste’mol, jamg’arish va investitsiya funktsiyalari.................. | 19 |
| | **2- MODUL** | |
| **7-mavzu.** | Keynsning tovarlar va xizmatlar bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat modeli.................................... | 22 |
| **8-mavzu.** | Pulga talab funktsiyasi........................................................... | 24 |
| **9-mavzu.** | Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat....................................... | 27 |
| **10-mavzu.** | Davlat byudjeti.Soliqlar.......................................................... | 30 |
| **11-mavzu.** | Byudjet-soliq siyosati............................................................. | 32 |
| **12-mavzu.** | Bank tizimi. Pul-kredit siyosati............................................... | 35 |
| **13-mavzu.** | IS-LM modeli.......................................................................... | 37 |
| | **3- MODUL** | |
| **14-mavzu.** | Iqtisodiy o’sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari...................................................................................... | 40 |
| **15-mavzu.** | Iqtisodiy o’sishning neoklassik modellari............................... | 43 |
| **16-mavzu.** | Xalqaro savdo nazariyasi......................................................... | 47 |
| **17-mavzu.** | Tashqi savdo siyosati.............................................................. | 48 |
| **18-mavzu.** | To’lov balansi.......................................................................... | 52 |
| **19-mavzu.** | Valyuta kursi........................................................................... | 55 |
| **20-mavzu.** | Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat............................ | 58 |
| **3.** | Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni..................... | 61 |
| **4.** | Uslubiy ko‘rsatmalar.............................................................. | 63 |
| **5.** | Amaliy (seminar) mashg’ulotlarga tayyorlanishda tavsiya etiladigan adabiyotlar ............................................................. | 68 |

I.A. Bakiyeva, G.X Nazarova.

“MAKROIQTISODIYOT”
fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha

uslubiy qo‘llanma

Muharrir: sh. Xudoyberdiyeva
Sahifalovchi: N. Nizamutdinova

Bosmaxona guvohnomasi № 10-0635
Bosishga ruxsat etildi 04.03.2015. Bichimi 60x84 1/16
Nashr hisob tabog‘i 4.8 b.t. Adadi 20. Buyurtma № 110

Toshkent Moliya institutida rizografiya
usulida chop etildi
100000, Toshkent, Amir Temur shoh ko’chasi 60 [a] uy.